

## TEXNIK MEXANIKA FANINING UMUMIY TUSHUNCHALARI

*Muzafarova N.G., 512-20QMB Toshev Jamolbek*

Davlatimizning rivoji va ertangi kunga bo‘lgan ishonchi ko‘p jihatdan zamonaviy, raqobatbardosh mashina va mexanizmlar moslamalarini ishlab chiqarishga bog‘liqdir. Akademik M.T.O‘razboyev quyidagi so‘zlarni aytgan edi: «Olim kelajakni o‘z ruhiy dunyosining eng baland cho‘qqisidan turib ko‘ra olishi va atrofdagilarni shubhalanmasdan yetaklashi bilan boshqalardan farq qilishi kerak. Bu esa kelajakda ijodkor kishilarni ko‘paytiradi, ijod natijasida mehnat unumdarligi oshishiga olib keladi». Mehnat unumdarligini oshirishdagi asosiy omillardan biri ishlab chiqarishga yangi mashina va mexanizmlarni joriy qilib, uning texnika darajasini oshirib borishdan iborat. Yuqoridagi vazifalarni hal kilishda “Texnik mexanika” fanining alohida o‘rni bor. “Texnik mexanika” fani mexanizmlarning tuzilishi, ularning kinematikasi va dinamikasi, materiallarning mustahkamligi, bikrligi, ustuvorligi hamda ularni loyihalash usullarini o‘rganuvchi fandir. “Texnik mexanika” fani to‘rt qismdan iborat: nazariy mexanika; materiallar qarshiligi; mashina va mexanizmlar nazariyasi; mashina detallari. **Nazariy memexanika** – moddiy nuqtalarning mexanik harakati va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Nazariy mexanikaning o‘zi uchga bo‘linadi: **1.Statika** – muvozanatdagi jismga ta’sir qiluvchi kuchlar, ushbu kuchlarni qo‘sish, ayirish va ularni teng ta’sir etuvchi kuch bilan almashtirish masalalari bilan shug‘ullanadi. **2.Kinematika** – moddiy nuqta harakatini faqat geometrik nuqtai nazardan, ya’ni, unga ta’sir qiluvchi kuchni hisobga olmagan holda o‘rganadi. **3.Dinamika** – moddiy nuqta harakatini shu harakatni vujudga keltirgan tashqi kuch bilan birga o‘rganadi. **Materiallar qarshiligi** – materiallarni kuchlar ta’sirida deformatsiyaga uchrashi, ya’ni, o‘z o‘lchamlarini o‘zgartirishini, boshqacha qilib aytganda materialni mustahkamlikka, bikrlikka, ustuvorlikka hisoblash usullarini o‘rganadi. **Mashina va mexanizmlar nazariyasi** – mexanizmlarni statika, kinematika va dinamikasini hisoblash va loyihalashni o‘rganadi. **Mashina detallari**–mashinalar tarkibidagi umumiylisoblangan detallarni hisoblash va loyihalashni o‘rganadi. Mashinasozlik sanoat va qishloq xo`jaligining taraqqiy etishi uchun zarur bo`lgan texnikaviy baza yaratadi. Shunday ekan, har bir ishchi, muhandis, hamda olimning vazifasi zamonamiz talabiga to`la javob beradigan, yuqori unumli, mustahkam va foydali ish koeffisienti yuqori bo`lgan yangidan-yangi mashinalar yaratishdan iborat. Buning uchun mashinalar loyihalashda ularning qismlari mumkin qadar yengil, yetarli darajada mustahkam, ishqalanishga chidamli, shakli oddiy, ishlatalishi qulay, xavfsiz va davlat standarti talablarini to`la qondiradigan bo`lishiga erishishi kerak. Bundan tashqari, detallar ishdan chiqqan taqdirda tez va oson almashtiriladigan bo`lishi ham zarur. Tabiiyki, bunday vazifani yuqori malakali mutaxassislargina hal qila oladi. Ana

shunday mutaxassislar tayyorlashda «Mashina detallari» fani alohida o`rin tutadi. Bir qancha detallardan tuzilgan mexanizmlar majmui bo`lib, ma`lum ish bajarish uchun mo`ljallangan vosita mashina deb ataladi. Har bir mashina uch guruhga: harakatlantiruvchi, ijro etuvchi va uzatuvchi mexanizmlarga bo`linadi. Mashinaning ayrim bo`laklarga ajralmaydigan qismi detal deb ataladi. Masalan: bolt, gayka, shponka, val va shu kabi detallardir. Mashinaning ma`lum vazifani bajarish uchun mo`ljallangan bir necha detallardan tuzilgan qismi uzel deyiladi. Masalan: reduktor, mufta, podshipnik va boshqalar. Demak mashina uzellardan, uzellar esa detallardan tuzilgan bo`lar ekan. Juda ko`p detal va uzellar bo`ladi, lekin hamma turdag'i mashinalarda ishlatiladigan detallar ham bor. Bunday detallar va uzellar mashinalarda umumiy vazifalarni bajaradi. Ularning tuzilishi va loyihalanish usullari mashina detallari fanida o`rganiladi. Shunday qilib, mashina detallari fani muhandislik amaliyotida ko`plab uchraydigan, deyarli hamma turdag'i mashinalar uchun umumiy bo`lgan detal va uzellarning tuzilishini va ularni iqtisodiy jihatdan tejamli qilib hisoblash va loyihalash usullarini o`rgatuvchi fandir.

#### *Foydalilanigan adabiyotlar*

1. Roland Janco, Branislav Hucko. Introduction to Mechanics-Slovak. Part 1. 2013.
2. Nabiev A. Materiallar qarshiligi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik-Toshkent: Yangi asr avlod, 2008-380 b.
3. Muzafarova N.G. “Theoretical preconditions for determining the utilization coefficient of shift time when using planning machines” participated in the VIII International Conference "AGRITECH-VIII-2023: Advanced Agrotechnologies, Environmental Engineering and Sustainable Development" | Krasnoyarsk, Russia, 29-31 March 2023.